


Transport vazirligining xorijiy ruxsatnomalarni berish tizimiga ERI (Elektron raqamli imzo) yordamida kirish bo'yicha qo'llanma

Xorijiy ruxsatnomalarni berish tizimi (dazvol.mintrans.uz)ga ERI yordamida kirishdan oldin quyidagilarni tekshiring.


- 1 Kompyuteringizning C diskida DSKEYS papkasi ichida ERI (.pfx shaklidagi fayl) mavjudligini tekshiring
- 2 ERI'ning amal qilish muddati tugamaganligiga ishonch hosil qiling
- 3 Kompyuteringizning E-IMZO moduli o'rnatilganiga ishonch hosil qiling.

Xorijiy ruxsatnomalarni berish tizimi (dazvol.mintrans.uz) ERI orqali kirish


- 1 <https://dazvol.mintrans.uz/> url manzili orqali tizim bosh sahifaga o'ting
- 2 **"Войти через OneID"** tugmasini bosing, tegishli tugma bosilganda OneID sahifasi ochilishi lozim



- 3 OneID sahifadagi suratda belgilangan tartibda **ERI** bo'limiga o'ting




- 4 ERI bo'limida Qurilmadagi mavjud ERI ro'yxati chiqishi lozim. Ushbu joydan tegishli ERI ni tanlab, suratda belgilangan tugmaga bosning.
Agar ERI ma'lumotlari chiqmasa 6-bo'limda boshlab ko'rsatilgan amallarni bajaring.




5

Ochilgan modal oynada ERI parolini kiriting va **OK** tugmasini bosing. Ushbu amaldan so'ng Tashuvchi o'z profiliga kirishi lozim.




6


Agar ERI bo'limiga kirganingizda sizning ERI ma'lumotlaringiz chiqmasa, bunga bir nechta sabablar bo'lishi mumkin. ERI oynasida ushbu sabablar keltirib o'tilgan bo'ladi. Agar muammo keltirilgan sabablarga bog'liq bo'lmasa u holda E-IMZO modulingizni yangilashga urinib ko'ring. Buning uchun suratda ko'rsatilgan "shu yerda" jumlasini ustiga bosing.



- 7 Ochilgan oynadan suratda ko'rsatilgan E-IMZO tugmasini bosing




- 8 Ochilgan Modal oynadan Windows OS uchun suratda ko'rsatilgan 1-variantni MacOSA uchun esa 3-variantni tanlang va yuklab olish tugmasini bosing. Shuningdek o'rnatish jarayonida foydalanish uchun Arxiv parolini o'zingizga qulay joyga yozib oling




9

Faylni yuklash yakunlangach Suratda ko'rsatilgandek fayl ustiga bosib yuklangan faylni oching yoki Kompyuteringizdagi **"Загрузки"** bo'limidan yuklangan faylga kiring




10

Fayl ichidagi suratda ko'rsatilgan .exe fayl ustiga bosning. Ochilgan modal oynaga Arxiv parolini kiriting va **OK** tugmasini bosning




11

Windows OS da dasturni o'rnatish jarayonida suratda ko'rsatilgan tegishli ogohlantirish oynasi ochiladi. Dasturni o'rnatishni davom ettirish uchun **“Подробнее”** tugmasini bosing




12


“Подробнее” tugmasi bosilgach suratda ko'rsatilgan **“Выполнить в любом случае”** tugmasini bosing. Ushbu tugma bosilgach ochiladigan tasdiqlash oynasidan **“Да”** tugmasini bosing



- 13 Yuqoridagi amallarni bajarganingizdan so'ng OneID sahifasiga qayting va yangilash tugmasini bosing



- 14 Sahifa yangilangach hammasi to'g'ri bajarilgan bo'lsa ERI bo'limida Sizning ERI ma'lumotlaringiz chiqishi lozim



- 15 Qolgan jarayon 5-bo'limida ko'rsatilgan tarzda davom etadi.